

**GAROVGA QO'YILAYOTGAN MAXSUS TEXNIKANI SUG'URTALASH
TO'G'RISIDA 01-noyabr 2024-yildagi 01/37HB/052-SONLI BOSH SHARTNOMA**

Toshkent sh.

“01” Noyabr 2024-y.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining 2022 yil 25-iyulidagi 00037-sonli Sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi Litsenziyasi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradigan, keyingi o'rinlarda **“SUG'URTALOVCHI”** deb nomlanuvchi **“MY INSURANCE” AJ ST** nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor M.B Kucharov bir tomondan, keyingi o'rinlarda **“NAF OLUVCHI”** deb nomlanuvchi, **“Hamkorbank” ATB** nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi B.T. Jo'rayev ikkinchi tomondan birgalikda **“Tomonlar”**, alohida hollarda **“Tomon”** deb atalib, Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani sug'urtalash to'g'risidagi Bosh shartnomani (bundan buyon matnda - Bosh shartnoma deb yuritiladi) tuzdilar:

1. Mazkur Bosh shartnomaning predmeti O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (Shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) moddalariga asosan Qarz oluvchining (Sug'urta qildiruvchining) mazkur Bosh shartnoma shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.

2. Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchining topshirig'iga ko'ra, Sug'urtalovchi o'z zimmasiga, mazkur Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan **2024 yil “01” “Noyabr”** dagi **“Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani”** sug'urtalash qoidalarini (bundan buyon matnda – **“Sug'urta qoidalarini”** deb yuritiladi) shartlariga muvofiq, sug'urta hodisasi sodir bo'lishi oqibatida Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi. Sug'urta qoidalarini doirasida rasmiylashtirilgan sug'urta polisiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi Qarz oluvchi hisoblanadi.

3. Sug'urta mukofotini to'lanishi, Qarz oluvchining Sug'urta qoidalarini va elektron sug'urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, Sug'urta qoidalariga qo'shilishiga so'zsiz va to'liq roziligini (akseptlaganini) bildiradi.

4. Har bir Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnomaga va Sug'urta qoidalariga qo'shilishi Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta shartnomasi doirasida berilgan elektron sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi.

5. Tomonlar Sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytidan, shuningdek mobil ilovalardan, elektron pochtdan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda elektron sug'urta polislarini rasmiylashtirishga haqli.

6. Tomonlar, Sug'urta qoidalariga muvofiq elektron sug'urta polisi yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug'urta qoidalarida belgilangan bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug'urta qoidalarida bo'lgan shartlar, shu jumladan sug'urta polisi matniga kiritilmagan shartlar, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchiga Naf oluvchi uchun majburiydir.

7. Mazkur Bosh shartnomaga ilova qilingan Sug'urta qoidalarini sug'urta qildiruvchiga topshirilganligini Sug'urtalovchi tasdiqlaydi.

8. Mazkur Bosh shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar, Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Sug'urta qoidalarini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

9. Mazkur Bosh shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi va taraflarning birini tashabbusi bilan ikkinchi tarafni 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin, biroq mazkur Bosh shartnoma bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sug'urta polislar muddati tugaguniga qadar amalda bo'ladi.

1. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITLARI

SUG'URTALOVCHI "MY INSURANCE" AJ ST

Manzili: Toshkent shaxar,
Mirobod tumani, Kichik Mirobod-95
BANK: Toshkent sh. TIF "MILLIY
BANKI" AJ
MFO: 00450, **OKED:** 65120
Inn: 207002342
x.R.: 2020 8000 4047 8606 6111

Elektron pochta: info@myinsurance.uz
Tel.: +998712051919

Bosh direktor: M.B Kucharov

m.o'.

imzo



Naf OLUVCHI

"Hamkorbank" ATB

Manzili: Andijon sh., Bobur shoh ko'chasi, 85
uy
BANK: "Hamkorbank" ATB Bosh ofisi
MFO: 00083, **OKED:** 96120
inn: 200 242 936
x.R.: .

Elektron pochta: muloqot@hamkorbank.uz
Tel.: 0 800 1 200 200

Boshqaruv raisi: B.T. jo'rayev

m.o'.

imzo



Boshqaruv raisi
B.T. Joyrayev

(imzo va muhr o'ri)

“01” Noyabr 2024-yil

Bosh direktori
M.B. Kucharov

(imzo va muhr o'rni)

“01” Noyabr 2024-yil

1-BO‘LIM. UMUMIY SHARTLAR

Mazkur Sugʻurta qoidalari boʻyicha sugʻurta subyektlari boʻlib shartnoma boʻyicha Sugʻurta qildiruvchi (Qarz oluvchi) yoki Garovga qoʻyuvchi (agar mulk Qarz oluvchiniki boʻlmasa). Sugʻurta qoidalari boʻyicha tuzilgan shartnomalar/polislarning predmeti boʻlib Sugʻurta qildiruvchida mulkdorlik, egalik qilish, idora qilish huquqi asosida boʻlgan, garovga qoʻyilayotgan uskunadan mahrum boʻlishi (nobud boʻlishi) yoki uning shikastlanishidan sugʻurtalash boʻlib, shu munosabat bilan Sugʻurtalovchi sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda Sugʻurta qildiruvchi/Naf oluvchiga ushbu Sugʻurta qoidalarida koʻrsatilgan shartlar va/yoki ushbu Sugʻurta qoidalarining ajralmas qismi hisoblangan qoʻshimcha kelishilgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq sugʻurta tovonini quyida koʻrsatilgan hajm va muddatda toʻlash majburiyatini, Sugʻurta qildiruvchi esa ushbu Sugʻurta qoidalarida koʻrsatilgan tartib va muddatda sugʻurta mukofotini toʻlash majburiyatini oladi.

Sug'urta qoidalarining deklaratsiyasida (3-ilova) ko'rsatilgan kredit shartnomasining ta'minot sifatida garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani sug'urtalash obyekti ekanligini Naf oluvchi, Sug'urtalovchi, Sug'urta qilduvchi xamda Qarz oluvchilar tasdiqlaydilar.

1.4. Sugʻurta qoidalarining asosida tuzilgan shartnomalar (polislar) mazkur Sugʻurta qoidalarining 3-ilovasi hisoblangan deklaratsiyada koʻrsatilgan-kredit shartnomasining taʼminoti sifatida garovga qoʻyilayotgan maxsus texnikani sugʻurtalash obyekti ekanligini Sugʻurta qildiruvchi xamda Qarz oluvchilar oʻz imzolari(muhrlari) bilan, Sugʻurtalovchi esa sugʻurta polisi taqdim qilishi orqali tasdiqlaydilar.

2-BO' LIM. TA'RIFLAR

Quyida keltirilgan, ushbu Sug'urta qoidalarida foydalanilgan atamalar, agar boshqacha kelishilmagan bo'lsa, quyidagi ma'nolarga ega:

2.1. Sug'urta polisi – Sug'urtalovchining sug'urta to'voni to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan keyin beriladigan hujjat.

2.2. Sug'urta puli – Sug'urtalovchining ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha majburiyatlari hajmining chegarasini aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

2.3. Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga ushbu Sug'urta qoidalarida bilan kelishilgan tartib va muddatda to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

2.4. Sug'urta qiymati – Sug'urta qoidalarini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan maxsus texnika vositasi qiymati (FK 935m).

2.5. Sug'urta hodisasi – sug'urtalangan maxsus texnikaning sug'urta muddati mobaynida bevosita ushbu Sug'urta qoidalarining 3-bo'limida keltirilgan qaltisliklardan to'g'ridan-to'g'ri jismoniy shikastlanishi, yo'qotilishi yoki nobud bo'lishi va tovar qiymatining yo'qotilishi natijasida Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining mulkiy manfaatlariga zarar yetishi.

2.6. Sug'urta to'voni – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining zararlarini qoplash uchun to'lanadigan pul mablag'lari miqdori.

2.7. Naf oluvchi – Sug'urta qildiruvchining arizasiga asosan ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha sug'urta to'vonini oluvchisi sifatida tayinlangan va Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan shaxs.

2.8. Maxsus Texnika deganda qurilishda, yo'l-qurilish ishlarida, yer qazishda, karyerlarda, konlarda, qishloq xo'jaligida va kommunal sohasida ishlatiladigan maxsus texnika va mexanizmlar tushuniladi (buldozerlar, samosvallar, ekskavatorlar, greyderlar, beton qorishmalarini aralashtiruvchi mexanizmlar, kompressorlar, traktorlar, sement tashuvchi, suv quyuvchi mashinalar, katoklar, asfalt yotqizuvchi mashinalar, yer qazish va burg'ilash mashinalari, kambaynlar, o'roqlar, kultivatorlar, seyalkalar, chiqindilarni tashuvchi va tozalash texnikalar, avariya-ta'mirlash xizmatlarning avtouloulari va boshqalar (x k))

2.9. Sug'urtalangan maxsus texnika vositasi – ishlab chiqaruvchi zavod to'plamidagi, ushbu Sug'urta qoidalarining 3-ilovasida ko'rsatilgan mahsus texnika vositasi (quyida – "sug'urtalangan maxsus texnika vositasi" yoki "maxsus texnika vositasi").

2.10. Haydovchi – mahsus texnika vositasini boshqarishga ruxsat etilgan toifali haydovchilik guvohnomasiga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalangan maxsus texnika vositasini boshqarish ruxsatnomasiga (ishonchnoma va/yoki yo'l varag'iga) ega bo'lgan shaxs.

2.11. Sug'urta qoidalarining amal qilish muddati – Sug'urta qoidalarida amalda bo'ladigan davr.

2.12. Sug'urta muddati – sug'urta polisida ko'rsatilgan davr. Ushbu Sug'urta qoidalarida bilan shartlashilgan sug'urta shartnomasi/polisi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiq etiladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

2.13. Geografik hudud – Sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi va undan tashqari hudud hisoblanadi.

2.14. Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari – sug'urtalangan maxsus texnika vositasi yoki uning alohida qismlarini yondirilishi, sindirilishi, buzilishi, o'zlashtirilishi, shuningdek uchinchi shaxslarning qonunga zid/huquqbuzarlik/noqonuniy harakatlari natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

2.15. Uchinchi shaxslar – Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchidan boshqa har qanday shaxslar.

2.16. Yo'l-transport hodisasi – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, odamlarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqacha tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

2.17. Yong'in – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

2.18. Portlash – gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiyaning shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiyaning tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa xam, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazigan zarar sug'urta qilinmaydi.

2.19. Yashin urishi – TV mahrum bo'lishga (nobud bo'lishiga) olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

2.20. Zilzila – yer qarida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

2.21. Suv toshqini – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida xududni sezilarli darajada suv bosishi.

2.22. Ko'chki – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarning ta'sirida, qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jisnlarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarning qulashi.

2.23. Yer siljishi – dengizlar, ko'llar, daryolar jarliklar yaqinida chuqurliklarning, kanallarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin sijishi.

2.24. Kuchli shamol – tezligi 15 m/s va undan ortiq bo'lgan shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazning xududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

2.25. Do'l urishi – do'lning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan TVni xar qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

2.26. Jala – 12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatiladigan kuchli yomg'ir.

2.27. Qalin qor yog'ishi – bunday qor yog'ishi ushbu xudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi. Xo'jasizlik sababli sekin-asta ko'p miqdorda qor to'planishi qalin qor yog'ishidan farqlanadi.

2.28. Suvdan zaralanish – ichimlik suvi, oqova suvlar, isitish tizimlari, yong'inni o'chirish va xaroratni maromda saqlash tizimlaridan chiqqan suv yoki suyuqlikning sug'urtalangan tv jismoniy ta'sir qilishi yoki Sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lmagan qo'shni joylardan suv kirishi.

2.29. Uchvuchi vositalarning qulashi – uchuvchi apparatlar, ularning qismlari yoki yuklari tushishi natijasida sug'urtalangan TV ni har qanday bevosita yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

2.30. Tovar ko'rinishining yo'qotilishi – sug'urta hodisasi natijasida olingan shikastlanishlarni, shuningdek ob-havo va/yoki doimiy ta'sir etuvchi omillar natijasida yuzaga kelgan zararni bartaraf etish maqsadida sug'urtalangan maxsus texnika vositasini ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirilishi oqibatida maxsus texnika vositasining haqiqiy qiymatining yo'qotilishi va/yoki boshqa zararni anglatadi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI VA TAVAKKALCHILIKLARI

Ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta qoidalarining 3-ilovasida ko'rsatilgan sug'urtalangan maxsus texnika vositasiga sug'urta himoyasini bilvosita quyidagi qaltisliklar natijasida sug'urta hodisasi sodir bo'lganda taqdim etadi:

- yo'l-transport hodisasi;
- yong'in, portlash, yashin urishi;
- suv bosishi, bo'ron, dovul, kuchli shamol, yomg'ir, do'l, qalin qor yog'ishi, sel;
- zilzila, yer siljishi, ko'chki, ag'darilishi, o'pirilishi;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.
- Predmetlarning urilishi yoki qulashi.

- maxsus texnikaning montaj va demontaj ishlari vaqtida shikastlanishi;
- maxsus texnikani haydab olib qochish, talonchilik, bosqinchilik

3.1. Maxsus qo'shimcha shart:

Ushbu bilan Sug'urta qoidalarini bo'yicha tomonlar mustaqil qismlar, tizimlar, bog'lovchi qismlar, moslamalarga (olib qochishga qarshi uskunalar, avtomagnitolalar, ovoz kuchaytirgichlar, karnaylar/dinamiklar, sport diskalari, har qanday turdagi antennalar va h.k.) yetkazilgan zarar, agar ular ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o'rnatilmagan, sug'urtalangan maxsus texnika vositasi to'plamiga kiritilmagan yoki ushbu Sug'urta qoidalarini bilan qo'shimcha jihoz sifatida sug'urtalanmagan bo'lsa, ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo'ladilar.

4-BO'LIM. UMUMIY ISTISNOLAR

4.1. Ushbu Sug'urta qoidalarini bilan quyidagi shart-sharoitda sug'urtalangan maxsus texnika vositasiga yetkazilgan zararlar qoplanmaydi:

a) harbiy bosqinchilik harakatlari, harbiy harakatlar yoki harbiyga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), fuqarolik urushi;

b) g'alayon, fuqarolarning ommaviy tartibsizliklari, milliy tavsifdagi ish tashlashlar;

d) shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari;

e) Agar mulkiy Sug'urta qoidalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

f) sug'urtalangan maxsus texnika vositasi ixtiyorida bo'lgan Sug'urta qildiruvchi/Haydovchining yoki Naf oluvchining sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga yo'naltirilgan, qasddan qilgan harakatlari, o'z fuqarolik burchini ado etish yoki Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq harakatlar bundan mustasno;

g) sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi tomonidan sug'urtalangan maxsus texnika vositasi haqida avvaldan yolg'on ekanligi ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni xabar qilinishi;

h) sug'urtalangan maxsus texnika vositasini mastlik holatida (alkogol, giyohvand moddalar iste'mol qilgan) boshqarishi;

i) sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi maxsus texnika vositasidan boshqarishni o'rgatish yoki musobaqa va sinovlarda qatnashishda foydalanishi;

j) temir yo'lni kesib o'tish qoidasini buzishi, svetoforming man etuvchi chirog'iga o'tish;

k) sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchi bu haqida bilganligi yoki bilmaganligidan qat'iy nazar sug'urtalangan maxsus texnika vositasining ushbu Sug'urta qoidalarini amal qilishidan avval bo'lgan nosozligi yoki nuqsonlari, agar mazkur nosozlik yoki nuqsonlar tegishli vakolatli organlar tomonidan xujjatlar asosida tasdiqlansa;

l) sug'urtalangan maxsus texnika vositasini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq transport vositalarini boshqarish uchun huquqi va ruxsati (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma) bo'lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi.

4.2. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha g'ildiraklarning va/yoki shinalarning qatnov yo'lining notekisligi yoki yomon holati, o'tkir buyumlarni bosishi va h.k. sababli zararlanishi, agar bu sug'urtalangan maxsus texnika vositasini shikastlanishi yoki nobud bo'lishiga olib kelmasa, qoplanmaydi.

4.3. Maxsus istisnolar:

4.3.1 Quyidagilar sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi:

a) maxsus texnika vositasini, uning alohida qismlari va bog'lovchi qismlarini ulardan foydalanish va/yoki foydalanmaslik oqibatida tabiiy eskirishi;

b) ishlab chiqaruvchi zavod yo'l qo'ygan nuqson;

d) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining sug'urtalangan maxsus texnika vositasini takomillashtirish bilan bog'liq xarajatlari;

5-BO'LIM. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI

5.1. Ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha sug'urta summasi va sug'urta mukofoti xar bir sug'urta polisi bo'yicha aloxida Sug'urta qoidalarining 4 - ilovasida ko'rsatiladi, polislar bo'yicha sug'urta mukofoti Sug'urta qoidalarining 1-ilovasidagi tarif asosida xisoblanadi.

5.2. Ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyuta (so'm)da amalga oshiriladi.

6-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMALAR/POLISLARNI TUZISH TARTIBI VA AMALDA BO'LIH MUDDATI

6.1. Mazkur Sug'urta qoidalariga asosan sug'urtalovchi va naf oluvchi orasida Bosh kelishuv tuziladi va xar bir sug'urta qildiruvchiga elektron sug'urta Polis berish va Sug'urta qoidalarga qo'shilish yo'li bilan shartnomalar tuziladi.

Elektron sug'urta polisi (Sug'urta qoidalarining 4-ilovasi) amaldagi sug'urta faoliyati qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtiriladi hamda sug'urta mukofoti / uning birinchi navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgandan keyin zudlik bilan onlayn rejimda Sug'urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga taqdim yetiladi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urta polisi sug'urta mukofotiga mutanosib muddatga beriladi.

6.2. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi o'z vaqtidan keyin to'lansa, ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar/polislarda kelishilgan sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'langan paytdan boshlab kuchga kiradi va ushbu Sug'urta qoidalarining 4-ilovasida ko'rsatilgan muddat mobaynida amalda bo'ladi. Sug'urtalovchining majburiyatlari boshlanishi Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'langan payt bo'lib Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga pul mablag'lari kirim qilingan kun hisoblanadi.

6.3. Ushbu Sug'urta qoidalari bilan shartlashilgan Sug'urta shartnomalar/polislari kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga taalluqli va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

6.4. Agar Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarini to'liq hajmda bajarsa, sug'urta muddati tugagunga qadar Sug'urta qildiruvchi naf oluvchi bo'lib hisoblanadi.

7-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ushbu Sug'urta qoidalari amalda bo'lgan muddatda:

Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining huquqlari:

7.1. Tomonlarning kelishuvi bilan ushbu Sug'urta qoidalariga o'zgartirishlar kiritishi;

7.2. So'roviga ko'ra Sug'urtalovchidan ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha maslahatlar olishi;

7.3. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olishi;

7.4. Sug'urtalovchining sug'urta to'lovi to'lovini rad etish javobi ustidan sudga arz qilishi.

7.5. Mulk xukukini begonalashtirmagan xolda qonunchilikda ruxsat etilgan xar kanday tartibda maxsus texnika vositasini ijaraga (vaqtincha foydalanishga) berishi;

7.6. naf oluvchi sugurta muddati davrida sugurta xodisasi sodir bo'lganda sugurta xodisasi tugrisida xabar topgan sugurta davrining har qanday vaqtida sugurtalovchiga murojaat qilishga xaqli

Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining majburiyatlari:

Sug'urta qoidalarini tuzishda Sug'urtalovchiga o'ziga ma'lum, sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolliligini va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlarni aniqlash uchun muhim bo'lgan barcha tavsilotlar haqida, shuningdek sug'urtalangan maxsus texnika vositasika nisbatan tuzilgan va tuziladigan sug'urta shartnomalari haqida xabar qilishi;

Ushbu Sug'urta qoidalari amal qilgan muddatda Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urtalovchiga o'ziga ma'lum, Sug'urtalovchiga ushbu Sug'urta qoidalarini tuzayotganda xabar qilingan tavsilotlardagi o'zgarishlar haqida, agar bu o'zgarishlar sug'urta qaltisligi darajasi oshishiga sezilarli ta'sir

qilsa, xabar qilishi shart.

a) Agar Sug'urta qildiruvchi qonunlar yoki boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan qoidalar yoki yong'inga qarshi xavfsizlik, moddiy boyliklarni asrash, ishlarni amalga oshirishning xavfsizlik me'yorlarini yoki shu kabi me'yorlarni buzilishiga olib kelsa yoxud bunday qoidabuzarliklar Sug'urta qildiruvchining xabari bo'lgan holda amalga oshirilsa, bunday qoidabuzarliklar qaltislik darajasini oshiruvchi tavsilot sifatida qaraladi.

b) Sug'urtalovchi bevosita xavfsizlik me'yorlarini buzilishi sababli kelib chiqqan sug'urta hodisalari bo'yicha tovon to'lashni rad etish huquqiga ega. Ammo sug'urta hodisasi sodir bo'lishi me'yorlarni buzilishi bilan bog'liq bo'lmasa, sug'urta tovonni to'lanadi.

d) Sezilarli o'zgarishlar bo'lib Ariza-so'rovnoma xabar qilingan tavsilotlar hisoblanadi bunday holatda sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga, Sug'urta qoidalarida amalda bo'lgan davr mobaynida sug'urta obyektiga taalluqli, sug'urta qaltisligiga sezilarli ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar, shu jumladan quyidagilar haqida xabar berishi:

- maxsus texnika vositasiga bo'lgan mulkdorlik huquqi qonunda belgilangan tartibda boshqa shaxsga o'tishi;

ushbu Sug'urta qoidalarida shartlari bo'yicha sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa:

imkon bo'lishi bilanoq, sug'urta qildiruvchiga ma'lum bo'lgan kundan 15 (o'n besh) kalendar kunidan kechikmay, Sug'urtalovchini yoki uning vakilini voqea sodir bo'lganligi haqida xabardor qilishi;

voqea sodir bo'lganligi haqida xabar berilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida Sug'urtalovchiga tegishli yozma arizani zararga ta'sir etgan, o'ziga ma'lum sabablar va tavsilotlarni ko'rsatgan holda yo'llashi;

sug'urta qildiruvchi darhol maxsus texnika vositasini qutqarish, keyingi shikastlanishni oldini olish va qo'shimcha zararni yuzaga kelishiga ko'maklashuvchi sabablarni bartaraf etish bo'yicha imkon mavjud choralarni ko'rishi, shu jumladan shikastlangan maxsus texnika vositasini qo'riqlanishini ta'minlashi;

yong'in sodir bo'lishi yoki yashin urishi, portlash yoki buzib o'g'irlik qilish holatlarida bu haqida darhol tegishli idoralarga xabar qilishi (yong'in xavfsizligi idoralari, ichki ishlar idoralari, FVV hududiy idoralari va sh.k.);

Sug'urtalovchining vakili kelgunga qadar shikastlangan maxsus texnika vositasini sodir bo'lgan voqeadagi holatida saqlashi. Zarar ko'rinishini o'zgartirish faqat bu xavfsizlik nuqtayi nazaridan shart bo'lsa, zarar miqdorini kamaytirish uchun, Sug'urtalovchining roziligi bilan yoki Sug'urtalovchini sodir bulgan voqea to'g'risida xabardor qilgandan keyin ikki hafta o'tgandan keyin amalga oshirilishi mumkin. Bunda Sug'urta qildiruvchi voqeadan keyingi ko'rinishni foto yoki video tasvirga tushirish orqali saqlab qolishi shart;

Sug'urtalovchiga shikastlangan maxsus texnika vositasini yoki uning qoldiqlarini, shikastlangan qismlarini, detallarini va unga mansub jihozlarni yoki ularning qoldiqlarini taqdim etishi (agar mavjud bo'lsa);

zarar bo'lganda, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda nobud bo'lgan (yo'kolgan), shikastlangan maxsus texnika vositasiga egalik qilish huquqi yoki boshqa mulkiy manfaatini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi (mulkdorlik huquqi to'g'risida guvohnoma, oldi-sotdi Sug'urta qoidalarisi, ijara Sug'urta qoidalarisi va h.);

Sug'urtalovchini zarar o'rni qoplanishi, shikastlangan yoki yo'qotilgan sug'urtalangan maxsus texnika vositasi qaytarilishi yoki tiklanishi haqidagi barcha holatlar haqida xabardor qilishi;

Ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan barcha xabarlar tomonlar tarafidan yozma shaklda yoki matnni va xabar sanasini saqlashga imkon beruvchi aloqa uslublarida (aloqa vositalari orqali) yoxud olinganligi imzo bilan tasdiqlangan holda topshiriladi.

Sug'urta qildiruvchining mazkur Sug'urta qoidalarida kursatilgan barcha huquq va majburiyatlari Lizing oluvchiga xam nisbatan qo'llaniladi.

Sug'urtalovchining huquqlari:

a) sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan oldini olish choralarini amalga oshirishi;

b) sug'urta hodisasi sodir bo'lish qaltisligi darajasini tavsiflovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi. Ushbu Sug'urta qoidalarida amalda bo'lgan muddatda qaltislik darajasi o'zgargan taqdirda, shart-sharoitdan kelib chiqib, sug'urta mukofoti miqdori oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin;

d) sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi taqdim etgan hujjat va axborotni haqiqiy ekanligi/rostligi/obyektivligi nuqtayi nazaridan, shuningdek Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta qoidalarida shartlarini bajarishini tekshirishi;

e) sug'urta qildiruvchi/Haydovchi va/yoki Naf oluvchi ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda sug'urta to'lovini to'lovini rad etishi;

f) ushbu Sug'urta qoidalarining 8.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni hammasini talab qilmasdan ham voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki olmaslik (yoki sug'urta to'lovini to'lovini rad etish) haqida qaror qabul qilishi;

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) ushbu Sug'urta qoidalarida belgilangan muddatda Sug'urta polisini berishi;

b) barcha zarur hujjatlarni olib, sug'urta hodisasini tan olgandan keyin ushbu Sug'urta qoidalarida kelishilgan miqdor va muddatda sug'urta to'lovini to'lovini amalga oshirishi;

d) ushbu Sug'urta qoidalarida bilan sug'urta qildiruvchini to'liq tanishtirish va amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar berishi;

e) ushbu Sug'urta qoidalarida amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo'lgan yoki ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha axborotni oshkor qilishga Sug'urta qildiruvchining yozma ruxsati bo'lgan holatlar bundan mustanso.

8-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH

8.1. Sug'urtalovchidan sug'urta to'vonini to'lash bo'yicha talabga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- darhol sodir bo'lgan voqea to'g'risida mutasaddi idoralarga (yo'l harakati xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, ichki ishlar idoralariga va b.) xabar qilishi;

- imkon bo'lishi bilan oq, sug'urta qildiruvchiga ma'lum bo'lgan kundan 15 (o'n besh) kalendar kun ichida Sug'urtalovchini bu haqda xabardor qilishi va voqea sodir bo'lgandan keyin 15 (o'n besh) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga voqea joyi, sababi va tavsilotlari ko'rsatilgan yozma xabarnomani yo'llashi.

Sug'urta to'vonini to'lovi to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qiladi:

a) Sug'urta polisi;

b) Haydovchilik guvohnomasi;

d) Transport vositasini ro'yxatga olish to'g'risida guvohnoma;

e) Ishonchnoma yoki transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi boshqa hujjat;

f) Voqea sababi va tavsilotlarini ko'rsatgan holda sodir bo'lgan voqeani tergov qilishga vakolati bor mutasaddi idoralardan tegishli ma'lumotnoma;

g) Baholash faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bor baholovchi tashkilot tomonidan barcha ishlar, ehtiyot qismlar va materiallar ko'rsatilgan moddiy zararni baholash bo'yicha hisob-kitob.

h) sug'urta to'vonini to'lash va zarar miqdorini aniqlash uchun Sug'urtalovchi talab qilgan boshqa hujjatlar;

Ushbu Sug'urta qoidalarining 8.1 bandlarida nazarda tutilgan hujjatlar ulardan nusxa ko'chirilib, taqdim etilgan hujjatlar haqiqiy ekanligi tasdiqlangandan keyin Sug'urta qildiruvchiga qaytariladi.

8.2. Sug'urta qildiruvchi har qanday yo'qotish va/yoki shikastlanish haqida xabar qilganda Sug'urtalovchi o'z xodimini yoki boshqa shaxsni sodir bo'lgan voqeaning turi, sababi va tavsilotlarini batafsil o'rganish uchun yuborishga haqli.

8.3. Barcha zarur hujjatlarni va ushbu voqeaga aloqador tavsilotlarni o'rgangandan so'ng Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror chiqaradi.

8.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash yoki to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga u sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

8.5. Voqea sodir bo'lganligi munosabati bilan jinoiy ish, fuqarolik ishi yoki ma'muriy ish qo'zg'atilgan taqdirda Sug'urtalovchi mutasaddi idoralar tegishli qaror chiqargunga qadar to'lanadigan mablag'lar xaqidagi qarorini keyinga qoldirishga haqli.

8.6. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini, shuningdek yetkazilgan zararlarni isbotlash Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi zimmasida.

8.7. Sug'urta voqearining tavsifi va tavsilotlaridan kelib chiqib, Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta qoidalarining 8-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlarning hammasini ham talab qilmasdan sodir bo'lgan voqeani tan olish yoki tan olmaslik (sug'urta tovonini to'lovini rad etish) to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

9-BO'LIM. SUG'URTA TOVONI TO'LOVI

9.1. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lovini sug'urta hodisasini tan olib, Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani tomonlar imzolagandan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida amalga oshiradi.

9.2. Sug'urtalangan maxsus texnika vositasi dan mahrum bo'lish yoki uni shikastlanishida tovon to'lash tartibi.

Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olgan taqdirda quyidagi koidalarga rioya kilgan holda to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta hodisasining mikdori aniqlanadi:

9.3. maxsus texnika vositasi olib qochilgan yoki to'liq nobud bo'lgan taqdirda – sug'urtalovchi maxsus texnika vositasi sug'urtalangan sug'urta pulini to'laydi.

9.4. Sug'urtalangan maxsus texnika vositasi shikastlangan taqdirda Sug'urtalovchi baholash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan baholovchi tashkilot tuzgan moddiy zararni baholash naryad-buyurtma/hisob-kitob miqdorida sug'urta tovonini to'laydi.

1-maxsus qo'shimcha shart:

Ushbu bilan Sug'urta qoidalarini bo'yicha tomonlar ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchining sug'urtalangan maxsus texnika vositasini o'zgartirish/takomillashtirish/yangilash bilan bog'liq xarajatlari qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo'ladilar;

Sug'urta tovonini to'lash:

9.5. Sug'urta tovonini Naf oluvchiga yoki uning yozma roziligi bilan Sug'urta qildiruvchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanadi.

9.6. Agar ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha sug'urta puli Sug'urta qoidalarini tuzilayotgan kundagi sug'urta qiymatidan kam miqdorda o'rnatilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga yetkazilgan zararlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasiga muvofiq, sug'urta pulining sug'urta qiymatiga mutanosib bo'lgan nisbatda qoplashi shart.

9.7. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha sug'urta tovonini oluvchining bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish orqali to'lanadi.

9.8. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi amalga oshirgan sug'urta tovonining har bir to'lovi, agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta pulini tiklash uchun qo'shimcha mukofot to'lanmasa, Sug'urtalovchi majburiyatlari chegarasini ushbu to'lov miqdorida kamaytiradi.

Sug'urta tovonini to'lovi oqibatida Sug'urtalovchining majburiyatlari kamayishi sug'urta tovonini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 936-moddasining talablarini inobatga olib to'lashga asos bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urtalovchining roziligi bilan sug'urtalangan maxsus texnika vositasika bo'lgan o'z huquqlarini unga o'tkazishi va sug'urta tovonini sug'urta pulining to'liq hajmida olishi mumkin (FK 958-modda).

9.11. Sug'urta tovonini to'liq yoki qisman to'lagan Sug'urtalovchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mablag' chegarasida zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi o'tadi, javobgar shaxs Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi bo'lgan holatlar bundan mustasno.

9.12. Barcha holatlarda sug'urta tovonini ushbu Sug'urta qoidalarida keltirilgan sug'urta pulidan ortiq bo'lmasligi shart.

9.13. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lagandan keyin Sug'urtalovchi/Naf oluvchi/Haydovchi aybi bilan sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha tomonlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 957-va 1001-moddalari talablari qo'llanilmaydi.

10-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMALAR/POLISLARNI BEKOR QILINISHI VA TUGATILISHI

10.1. Mazkur Sug'urta qoidalarini asosida tuzilgan shartnoma/polislar Sug'urta qildiruvchining yozma shakldagi arizasiga ko'ra undan istalgan vaqtda, bu haqda bekor qilish taxmin qilingan sanadan ko'pi bilan 15 (o'n besh) kun oldin ma'lum qilinishi shartida, bekor qilinishi/ Sug'urta qoidalaridan voz kechilishi mumkin. Mazkur Sug'urta qoidalarining bekor qilinishi uchinchi taraf manfaatlariga daxl qiladigan holatlarda, shu tarafning yozma shakldagi roziligi kerak bo'ladi.

10.2. Sug'urta qoidalarini, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga, xususan, Sug'urtalangan maxsus texnika vositasining sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi kiradi.

10.3. Agar Sug'urta qildiruvchining mazkur Sug'urta qoidalarini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risidagi talabi mazkur Sug'urta qoidalarining 10.2-bandida ko'rsatilgan sabablarga asoslangan bo'lsa, sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qaytarib beriladi.

10.4. Sug'urta qildiruvchi agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli Sug'urta qoidalarining 10.2-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, mazkur Sug'urta qoidalarini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli. Bu holatda, Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda, qaytarib berilayotgan sug'urta mukofotining 25% miqdorida xarajatlarini chegirib qolgan holda, qaytarib beriladi.

10.5. Mazkur Sug'urta qoidalarining 10.4., 10.5. bandlarida ko'rsatilgan holatlarda Sug'urta shartnoma/polisi bekor qilinganda, agar sug'urta hodisalari bo'yicha zararni qoplash to'g'risida talabnoma taqdim qilingan, Sug'urtalovchi tomonidan ular qoplanishi lozim bo'lgan va/yoki har qanday sug'urta tovonini to'langan bo'lsa, sug'urta tovonini qaytarib berilmaydi.

Mazkur Sug'urta qoidalarini quyidagi holatlarda bekor bo'ladi:

- a) amal qilish muddati tugaganda;
- b) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Garovga qo'yuvchi oldida Sug'urtalovchining mazkur Sug'urta shartnoma/polisi bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarib bo'linganda
- d) Sug'urta qoidalarini sud nomonidan haqiqiy emas deb topilganda;

11-BO'LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar o'z zimmlariga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.2. Sug'urta qildiruvchiga tegishli sug'urta tovonini kechiktirganligi uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan mablag'ning 0,1% miqdorida, lekin ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag'ning 10% idan oshmagan miqdorda penya to'laydi. Penya to'lanishi Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lovidan ozod qilmaydi.

11.3. Agar Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasliklari

yengib bo'lmaz kuch (fors-major) shart-sharoiti sababli yuzaga kelsa, ular javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Yengib bo'lmaz kuch ta'sirida bo'lgan tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi va tahminan qancha davom etishi mumkinligi to'g'risida bir-birlarini darhol xabardor qilishlari shart.

Bunda Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalarining bajarilgan va bajarilmagan qismlari yuzasidan o'rnatilgan tartibda yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

12-BO'LIM. SUBROGATSIYA

12.1. Sug'urta to'lovni to'langandan keyin (to'langan miqdor chegarasida) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zararni yetkazilganligiga javobgar bo'lgan shaxslarga nisbatan bo'lgan zarar o'rnini qoplashni talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchining yozma so'roviga asosan sug'urta hodisasi uchun javobgar shaxsdan talab qilish uchun o'zida mavjud hujjatlarni Sug'urtalovchiga beradi.

13-BO'LIM. BAHSLARNI HAL ETISH TARTIBI

13.1. Ushbu Sug'urta qoidalarida keltirilgan masalalar yuzasidan bahslar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal etish choralarini ko'radilar.

13.2. Ushbu Sug'urta qoidalaridan kelib chiqqan bahslar, kelishmovchiliklar yoki talablar, shu jumladan uning ijrosi, buzilishi, tugatilishi yoki haqiqiy emasligi muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

14-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Ushbu Sug'urta qoidalariga barcha qo'shimchalar va o'zgarishlar, shuningdek uni uzaytirish yoki tugatilishi tomonlarning roziligi bilan yozma shaklda amalga oshiriladi.

14.2. Sug'urtalangan maxsus texnika vositasiga bo'lgan huquqlar boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha Sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari maxsus texnika vositasiga bo'lgan huquqlar o'tgan mas'ul shaxsga o'tadi.

14.3. Ushbu Sug'urta qoidalarida tartibga solinmagan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

15. SUG'URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

“MY INSURANCE” AJ ST

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent shahar,

Mirobod tumani, Kichik Mirobod-95

X/R: 20208 000 4 04786066 111

Bank: Toshkent sh. TIF “MILLIY BANKI” AJ

MFO: 00450

INN: 207 002 342, OKED: 65120

**“GAROVGA QO‘YILAYOTGAN MAXSUS TEXNIKANI” SUG‘URTALASH
BO‘YICHA SUG‘URTA TARIFI**

“MY INSURANCE” AJ ST hamda “Hamkorbank” ATB o‘rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan “Garovga qo‘yilayotgan maxsus texnikani” sug‘urtalash qoidalariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi / Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga to‘lab beriladigan sug‘urta mukofotini hisoblab chiqishda qo‘llaniladigan sug‘urta tarifi:

T/r.	Sug‘urta amal qilish davri	Shartli sug‘urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	10 - yil va undan kam bo‘lganda	0,50%	yillik
2.	10 - yildan ko‘p bo‘lganda	0,40%	yillik

**Sug‘urta tarifi tomonlar kelishuviga ko‘ra ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*

Q-kod
Sug'urtalash koidalar
bilan tanishish

"MY INSURANCE" AJ ST
Bosh direktori M.B Kucharovga
Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi
_____ dan

**"GAROVGA QO'YILAYOTGAN MAXSUS TEXNIKANI" SUG'URTALASH QOIDALARIDA
BELGILANGAN SHARTLARDA SUG'URTA (POLISI)NI TUZISH UCHUN
ARIZA – SO'ROVNOMA**

Ushbu Ariza-so'rovnoma bilan Sizdan quyidagi ma'lumotlar asosida sug'urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so'rayman.

1.	Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi	_____ FIO _____
2.	Qarz oluvchining familiyasi, Ismi va Otasining ismi: Pasport ma'lumotlari: Mobil telefon raqami: Yashash manlisi:	_____ _____ _____ _____
3.	Kredit shartnomasi:	20__ yil "___" _____dagi _____-sonli shartnoma
4.	Kredit summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
5.	Kredit muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha
6.	Kredit maqsadi:	
7.	Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani manzili	
8.	Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani pasport ma'lumotlari	
9.	Sug'urta shartnomasi/polisining amal qilish muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha oxirgi kuni kirgan xolda
10.	Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani bozor qiymati:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
11.	Sug'urta mukofoti miqdori	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)

Ushbu Ariza-So'rovnomada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar haqqoniyligi va ishonchliligi tasdiqlayman.

Ushbu Ariza-So'rovnomani imzolar ekanman, "MY INSURANCE" AJ ST tomonidan tasdiqlangan "Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani" sug'urtalash qoidalarini (keyinchalik matnda – Sug'urtalash qoidalarini deb yuritiladi) bilan tanishganimni, Sug'urtalash qoidalarini qog'ozda menga taqdim qilinganligini, u bilan to'liq tanishganimni tasdiqlayman. Shuningdek ushbu Sug'urtalash qoidalarining elektron nusxasini olish imkoniyatini borligini menga tushuntirildi. Ushbu Sug'urtalash qoidalarini shartlariga o'z roziligimni bildiraman va tasdiqlayman.

(Qarz oluvchining Familiyasi, Ismi va Otasining ismi)

(imzo)

(sana)

SUG'URTA QOIDALARINING DEKLARATSIYASI

1.	Sug'urtalovchi:	"MY INSURANCE" AJ ST
2.	Sug'urta qildiruvchi:	
3.	Sug'urtalangan shaxs:	
4.	Naf oluvchi:	
5.	Garovga qo'yuvchi:	
6.	Sug'urta obyekti:	
7.	Sug'urta qoidolari (bosh shartnoma sana, nomeri):	
8.	Sug'urta muddati:	
9.	Sug'urta obyektining nomi:	
10.	Sug'urta obyektining tavsifi:	
11.	Kredit shartnomasi:	
12.	Sug'urta summasi:	
13.	Sug'urta qiymati (baxolash dalolatnomasidagi):	
14.	Sug'urta mukofoti:	

Sug'urtalangan turar-joy binosining ro'yxati 1 (bittadan) ortiqni tashkil etgan taqdirda quyidagi jadval to'ldiriladi:

SUG'URTALANGAN MOL-MULK RO'YXATI

No	Mol-mulkning nomi	Sug'urta qiymati, (valyutasi)	Sug'urta puli, (valyutasi)
1	2	3	4

TOMONLARNING IMZOLARI:

Sug'urta qildiruvchi
nomidan

imzo/m.o'

Garovga
qo'yuvchi nomidan

imzo/m.o'

"GAROVGA QO'YILAYOTGAN MAXSUS TEXNIKANI SUG'URTA QILISH"
POL_SERY POL_NUM-SONLI ELEKTRON POLISI

"MY INSURNCE" AJ ST hamda "Hamkorbank" ATB o'rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan "Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani" sug'urtalash qoidalariga (bundan buyon matnda – Sug'urta qoidalar deb yuritiladi) muvofiq quyidagilarga sug'urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1	Sug'urta mahsulotining nomi	Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani sug'urtalash 2024__yil __-__ kungi __-sonli Bosh shartnomaga asosan	
2	Sug'urtalovchi	"MY INSURNCE" AJ ST	
3	Sug'urta qildiruvchi	Qarz oluvchi nomi	
4	Sug'urtalangan shaxs	Qarz oluvchi nomi	
5	Naf oluvchi	"Hamkorbank" ATB	
6	Sug'urta obyekt		
7	Sug'urta shakli	Ixtiyoriy	
8	Sug'urta klassi	3 klass - Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish 8 klass - Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish 9 klass - Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	
9	Sug'urta tavakkalchiliklari	Sugurta shartnomasida kursatilgan sugurta xodisalarini yozish kerak	
10	Sug'urta qiymati	Summa yoziladi	
11	Sug'urta summasi	Summa yoziladi	
12	Franshiza	0	
13	Sug'urta mukofoti	Summa yoziladi	
14	Sug'urta polisining amal qilish muddati	kun-oy-yil	kun-oy-yil
15	Sug'urta himoyasiga olingan hudud	O'zbekiston Respublikasi	
16	Sug'urta qoidalar	<u>sayt ssilkasi</u>	
17	Sug'urta tashkilotining manzili		
18	Alohida qaydlar		

"MY INSURNCE" AJ ST ning sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofotini yoki uning qismini o'z vaqtida to'lash sharti bilan DOG_BEG_UZ yildan boshlab kuchga kiradi va DOG_END_UZ yilgacha amal qiladi.

Sug'urtalovchi nomidan:

OWN_BANK

POL_QR_CHECK

OWN_DIREKTOR

Ushbu sug'urta shartnoma(polis)si rasmiylashtish uchun ariza bergunimga qadar "Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani" sug'urta qoidalariga menga taqdim etildi. Men ushbu Sug'urta qoidalariga bilan to'liq tanishib chiqdim va "Garovga qo'yilayotgan maxsus texnikani" sug'urta qoidalaridagi shartlar menga to'liq to'g'ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e'tirozim yo'q. Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi

(FIO va imzo agar yuridik shaxs bo'lsa korxona nomi va vakolatli shaxs imzosi, muxri)

Polis berilgan sana: POL_VIDAN yil.

Raqamlangan, tikilgan

Qoq'oz

14

Bosh direktor M. Kucharov

